

Endi Tailandga sayohat qilish uchun sizga viza kerak emas!

2024 22 Iyul

15-iyuldan boshlab O'zbekiston fuqarolari Tailandda 60 kungacha vizasiz qolishlari mumkin. Biz bilan siz Bangkok va Pxuketga parvoz qilishingiz mumkin. Tailand poytaxtiga aviaqatnovlar dushanba va payshanba kunlari, Pxuketga esa – 1-noyabrdan boshlab seshanba va juma kunlari, ortga qaytuvchi aviaqatnovlar esa keyingi kuni amalga oshiriladi.

Ushbu kuzda Tailand shaharlarida unutilmas ta'tilni o'tkazing. Aviachiptalarni booking.uzairways.com sayti, ilovada, Uzbekistan Airways Sales filialida va aviakompaniya agentlaridan oldindan xarid qilib pul tejab qolishingiz mumkin.